




JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI

Soni – birlikda

2018 yil yanvar-aprel holatiga




- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali
- Davlat statistika qo'mitasi Raisi virtual qabulxonasi orqali
- Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali
- Qo'mitaning elektron veb-sahifasi orqali
- To'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan yozma murojaatlar
- Qo'mita rahbariyatining shaxsiy qabulidagi og'zaki murojaatlar

Davlat statistika qo'mitasiga **2018 yilning yanvar-aprel** holatiga jismoniy va yuridik shaxslardan **604** murojaatlar kelib tushgan.

Shu jumladan, kelib tushgan murojaatlarning **30** tasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali, **29** tasi Davlat statistika qo'mitasi Raisining virtual qabulxonasi orqali, **18** tasi Yagona Interaktiv davlat xizmatlari portalidan, **87** tasi Qo'mitaning elektron veb-sahifasi orqali, **48** tasi og'zaki va **392** tasi to'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan murojaatlar.

Murojaatlar: (mazmun-mohiyat bo'yicha)


Ulushi—foizda



Kelib tushgan murojaatlarning mazmun-mohiyati yuzasidan qilingan tahlillarga ko'ra, **282** tasi (*jamiga nisbatan 46,7 foiz*) Respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish statistik ko'rsatkichlari ma'lumotlarni taqdim etish yuzasidan, **49** tasi (*8,1 foizi*) korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registr bazasiga kiritish, statistik kodlar berish masalasi yuzasidan, **118** tasi (*19,5 foizi*) nafaqa hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ish staji, ish haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlarini olish masalalari yuzasidan, **61** tasi (*10,1 foizi*) statistik hisobotlarni to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirish berish yuzasidan, **54** tasi (*8,9 foizi*) o'z faoliyatini amalga oshirish uchun amaliy yordam olish yuzasidan, **13** tasi (*2,2 foizi*) Qo'mita vakolatlari va faoliyati bo'yicha ma'lumot olish yuzasidan, **27** tasi (*4,5 foiz*) boshqa masalalar yuzasidan tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha taqqoslama tahlili


Soni – birlikda



Davlat statistika qo'mitasiga asosiy qismi Toshkent shahridan **439** ta (*o'tgan yilning shu davrida 630 ta*) murojaatlarni tashkil etgan. Shuningdek, Toshkent viloyatidan **41** ta (*65 ta*), Qashqadaryo viloyatidan **18** ta, Xorazm viloyatidan **18** ta, Namangan viloyatidan **12** ta, Andijon viloyatidan **11** ta, Buxoro viloyatidan **11** ta, Farg'ona viloyatidan **10** ta, Samarqand viloyatidan **9** ta,, Navoiy viloyatidan **9** ta, Jizzax viloyatidan **9** ta, Sirdaryo viloyatidan **5** ta, Surxondaryo viloyatidan **5** ta, Qoraqalpog'iston Respublikasidan **5** ta va boshqa hududlardan **2** ta murojaatlar kelib tushgan.

Murojaatlarning ko'rib chiqish holati


Soni – birlikda



Davlat statistika qo'mitasiga kelib tushgan murojaatlarning **456** tasiga chora ko'rildi, **113** tasi tushuntirildi, **35** tasi ko'rib chiqilmoqda, rad etilgan murojaatlar mavjud emas.

Murojaatlar turlari bo'yicha

Soni – birlikda



Tahlillarga ko'ra, murojaatlarning jamiga nisbatan **44,7** foizi (**270 ta**) jismoniy shaxslar va **55,3** foizi (**334 ta**) yuridik shaxslarning murojaatlariga to'g'ri kelgan.

Eslatib o`tamiz:

O`z faoliyatingizda statistika idoralari bilan bog`liq masala va muammolarga duch keldingizmi, statistik yoki tahliliy ma`lumot olishni xohlaysizmi, quyidagi,



- "Ishonch telefon"lari:
- (71) 230-81-80/ 230-81-82

- Davlat statistika qo`mitasi rahbariyatiga bevosita murojaat etish:
- (71) 230-81-81

- Pochta manzili - **info@stat.uz**
- O`zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi **pm2.gov.uz** orqali murojaat etishingiz mumkin.

O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi

Nashr uchun mas`ul:

F.Berdibayev
(0371) 230-81-24